




The image shows a laptop on a desk. The screen displays a dashboard with several data points and charts. The data points are: 2500, 1.51 Sec, 2,500, 4,567, 2,315, and 7,325. There are also several line and bar charts visible on the screen.

2021- yil yanvar-avgust oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 830,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 003,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **123,6 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7 830,0	123,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	324,6	118,5
Moliyaviy xizmatlar	1 308,4	122,8
Transport xizmatlari	1 910,2	128,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 712,5	121,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	284,3	106,2
Savdo xizmatlari	2 477,2	115,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	180,8	125,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	357,7	157,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	144,7	145,5
Ijara xizmatlari	219,9	145,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	162,1	131,0
Shaxsiy xizmatlar	166,7	133,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,2	112,9
Boshqa xizmatlar	221,2	130,3

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,7 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarida (**4,6 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 157,3 %.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,6 %** ni tashkil etib, bu esa **2 477,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 936,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,2 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

1 936,9

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

2 477,2

96,9

O'sish sur'ati, % da

115,5

2020- y. yanvar-avgust




2021- y. yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **72,4 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **77,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)

2021- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 308,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 039,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **17,9 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **268,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **22,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **145,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,1 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,4 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

2021- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **324,6** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etgan.


Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turi hajmi **268,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **4,6 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **104,4 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi

2021- yil yanvar-avgust



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **92,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-avgust

2021- y.
yanvar-avgust



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,6 %** ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **223,0 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,8 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'sish sur'ati **94,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi G'ijduvon (**22 179,7** mln. so'm), Jondor (**15 485,3** mln. so'm), Qorako'l (**10 522,4** mln. so'm), Shofirkon (**10 098,9** mln. so'm), Buxoro (**9 074,0** mln. so'm) va Romitan (**8 139,8** mln. so'm) tumanlari hamda Buxoro shahrida (**249 220,6** mln. so'm) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlar hajmi, mln. so'm
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida Buxoro shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **185 858,3** mln. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **54,9** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-avgust



2021- y. yanvar-avgust



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,5 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-avgust




2020- y.
Yanvar-avgust



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021-yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Buxoro shahrida **53,9** % ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Kogon shahrida kuzatildi – **118,7** %.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Buxoro viloyati *)	7 830,0	123,6	100,9
Olot	291,3	118,6	100,1
Buxoro	450,0	119,2	100,3
Vobkent	543,4	179,6	100,2
G'ijduvon	1 024,9	120,2	100,1
Jondor	442,8	118,6	100,4
Kogon	269,7	129,6	100,2
Qorako'l	350,5	118,6	99,5
Qorovulbozor	136,4	111,8	88,6
Peshku	392,1	112,2	100,1
Romitan	419,7	117,9	100,0
Shofirkon	343,7	116,8	100,1
shaharlar:			
Buxoro sh.	2 882,5	123,9	101,9
Kogon sh.	283,0	122,9	100,0

**) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da**
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Buxoro shahri tashkil etdi – **36,8 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **36,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumanida – **1,7 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **1,9 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi



2021- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 009,6** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 020,6** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **99,4 %** da qayd etilgan.



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

19 377
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2 728
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

116,4 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


63,7 %

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- **sentabr** holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,7 %**, sanoat **15,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **10,9 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,5 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,5 %** ni, sanoat **15,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,0 %** ni, qurilish **10,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,1 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **8,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **3,8 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **82,7 %** ga to'g'ri keldi.

